



SHE'R AZIZ OLAM ARO

Jo'raqulova Samiya Fatullo qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

2-bosqich talabasi

She'r bir ne'mati uzmodurkim, Tangri taolo oni har kishiga ato qilmamishdur va oni aytmay hunari har kimning qo'lidan kelmamishdur va she'r shoirning izzat va davlat ne'matin hosil qilmoqg'a sabab, balki ikki dunyo manzilati saodatig'a vosil bo'lmoqg'a boisdur...
(Muhammadrizo Ogahiy. "Ta'viz ul-oshiqiyn" debochasidan)

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'rning inson hayotidagi o'rni qanchalik ekanligi, uning xususiyatlari haqida so'z boradi va shu o'rinda Abdurahmon Jomiy, Ahmad tabibiy va Alisher navoiylarning she'r haqidagi fikrlari keltirilgan. Xususan, Erkin Vohidovning She'r haqidagi chizgilar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, shuar, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Tabibiy, Erkin Vohidov.

She'r, shoir, shuur, shuar she'riyat... Inson ehtirosi, qayg'u iztirobi, yaxshi dami, yomon kundagi hamdamni aynan she'riyatdir. Zero, to'y qilinsa she'rlar kuyga solinadi; yor-yor kuylanadi, o'lan aytildi. Aza bo'lsa ham xuddi shuningdek; marsiya o'qiladi. Bayram bo'lsa she'rlar shodasi qator-qator yangraydi. Xullas, she'riyat insonga doimo oshno, u bilan hamroh.

Sher inson olamini tafakkur qilishga, yon-atrofdagi hodisalarga teran nigoh bilan qarashga o'rgatadi, unung dunyoqarashini shakllantiradi. Shu sabab bo'lsa kerak, payg'ambarlarga vahiy, shoirlarga ilhom keladi, deya shoirlar yuqori maqomlarda eslanadi. Bejizga Qur'oni karimda ham "Shuar" surasi kelmagandir.

Ahmad Tabibiy forsiy devoni debochasida she'r va shoirlar haqida shunday yozadi: "Lekin she'r on nav' ne'mati aziym ast, ki komi har shaxs az on shiriniy bigarad va on sifat davlati kubrost, ki tab'i har inson az vay bahra bapazirad...va bisyore azizone avliyoulloh ham fikri nazm kardaand va niz Shayx Farididdin Attor qaddasollohu sirruhu farmudaand, ki nazm: Shoiriy juzvist az payg'ambariy, Johilonash kufr xonand az..." (lekin she'r shunday ulug' ne'matdirki, har bir shaxs dahani-og'zi unung shirinligidan bahramand bo'ladi, u shunday katta davlatdirki, har bir inson tabiatini undan o'ziga yarasha bahra oladi, va ko'plab aziz avliyoullohlar nazm fikrida bo'lishgan. Shayx Farididdin Attor qaddasollohu sirruhu marhamat qiladi: shoirlar payg'ambarlikdan bir bo'lak, Johillar kufr aytishar misli eshak).

Abdurahmon Jomiy o'zining debochasida she'r haqida uzundan-uzoq yozib, shunday deydi: "Bas, she'r fazilatini haddi sonicha ochib berishning iloji yo'q va raddiya qo'li bilan uning ko'ksiga itarishning ham imkoniy yo'qdir. Zeroki, "Ana afsah" (Men fasih so'zliman) bayrog'ining sohibi, "Ana amlah" (men yumshoq tilliman) ridosining egasi "Alayhi minas salovat afzaluha va minat tahiyyoti akmaluha (Unga salovat va salomlarning afzali va komili bo'lsin) she'rni yaxshi ko'rardi. "Kashshof"da nazm mezonining voze'I, vaz aytuvchisi, asoschisi va she'r me'yorining rofe'i- ko'taruvchisi Xalil bin Ahmaddan aniq va haqiqatga yaqin rivoyat keltiriladiki, Onhazrat s.a.v mavzun va manzum (she'riy va tartibli) so;zlarni juda yoqtirardilar. Ularning tillaridan ko'pgina vaznli, me'yorli, tartibli so'zlar chiqardi. Sahobai kiromlardan (rizvonullohi taolo alayhim ajma'iyn) biri shunday naql qiladi: bir kuni yo'lda avvalu oxirgilarning peshvosi (s.a.v)ning yonida o'tirib qoldim. Shunda ular avval o'tgan(qadim) shoirlardan birini nomini aytib, marhamat qildilar:- Uning she'ridan biror bayt

yod bilasanmi? Bir bayt o‘qidim. Keyin yana o‘qi, dedilar. Yana o‘qidim. Yana o‘qi dedilar. Yana o‘qidim, shu zaylda 100 bayt o‘qidim...”

Alisher Navoiy tomonidan, ”tab‘i ham xub ermish va nazm aytur ermish” deb ta’riflangan Pahlavon Mahmud ruboiylaridan birining tarjimasi shunday yangraydi:

Berdim qalamimga so‘z, tilim lol etdim.

Orifmanu, qalbimda ajib hol etdim.

So‘z davlati sultonlari taslim bo‘ldi,

Bu mulkni tafakkur ila ishg’ol etdim.

(Matnazar Abdulhakim tarjimasi).

Har bir davrning yetakchi shoirlari, aniqog’I davr adabiy mihitining zalvorli darg’alari bo‘ladi, XXasr ikkinchi yarmi va XXI asr boshining ana shunday peshqadam shoirlaridan biri Erkin Vohidov edi. Shoir she’r haqida shunday yozadi:

She’r aziz olam aro.

Menga tiriklik, jon qadar,

Jon nedur oshiq uchun,

Jondin aziz jonon qadar.

She’rdin ayru tonglarim

Yaldo tuniday zim-ziyo,

She’r bilan tunlar charog’on

Yondirar hijronida,

Gohi boqsa bir qiyo,

Boshim bo‘lur osmon qadar.

Kimki oshiqdur jahonda

She’rga bo‘lgay mubtalo,

Ishq uchun tengdur gadodan

To buyuk sulton qadar.

Shoh Bobur Hindu sori

Yurdi-yu, shoir va lek

Yig’ladi Farg’onadin to-

Mulki Hindiston qadar.

She’r zolulidin simirdim

Bir piyola to‘ldirib,

Voh ko‘rindi menga har bir

Qatrasи ummon qadar.

Nuqta qo‘y nazmingga, Erkin,

Muztasarlik so‘zga zeb,

Yo‘qsa, tong otguncha she’ring

Bo‘lg’usi doston qadar. (1968 yil)

Darhaqiqat, olam ahli orasida she’r yuksak maqomda. Oliy martabali shaxslarning ish stolida ham qaysidir shoirning she’rlari bo‘lishi tarixdan ham zamonamiz qahramonlaridan ham ma’lum. O‘z davrining mashhur siyosatdonlari ham bo‘sh qolgan paytlarida qaysidir shoir ijodiga murojaat etishadi. Xulosada she’riyat haqida xorijlik adiblarning fikrini keltirsak:

“She’r shunday bir musiqiylik va u har bir kishining zamirida yashaydi. Shekspir(1564-1616)”

“She’r bir naqqoshdirki, o‘ziga xos tili bor, shunday bir tildirki, o‘ziga xos naqshi border. Mormuntel (1723-1799)

“She’r ta’rifi va unung tavsiifini keltirish shunday mushkil ishki, hozirgacha bo‘lgan deyarli barcha ta’rif egalari uni hal etishni oxiriga yetkazolmaganlar”. Gegel (1770-1831)

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Vohidov E. Sadoqatnomalar. -T.:G'afur G'ulom nashriyoti, 1986.
2. Sharafiddinov X. O'zbek falklori savollar va javoblarda. O'quv qo'llanma. Farg'onadavlat universiteti. 2003.